

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870



UO'K: 821.512.133

**BADIIY OBRAZ BORLIQNI ANGLASH OMILI SIFATIDA (ISAJON SULTON
HIKOYALARI MISOLIDA)****ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ КАК ФАКТОР ПОЗНАНИЯ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ (НА
ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ ИСАДЖАНА СУЛТАНА)****ARTISTIC IMAGE AS A FACTOR OF COGNITION OF REALITY (ON THE EXAMPLE OF
THE STORIES OF ISAJAN SULTAN)**

Oxunova Go'zalxon Hamdambek qizi,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ma'lumki, adabiy asarda badiiy obrazlar chinakam empirik hissiyotli obyektlar sifatida qabul qilingan. Yozuvchilar o'z ijodida aynan obraz orqali dunyo va odam tasvirini ifoda etishadi. Aytish kerakki, badiiy obraz nafaqat tabiatning, hayvonot olamining, odamning, umuman, shaxslararo aloqalarning munosib qiyofasini o'zida namoyon etadi. Agar badiiy asar – adabiyotning asosiy birligi bo'lsa, unda badiiy obraz – adabiy ijodning asosiy birligidir. Badiiy obrazlar yordamida tasvir obyekti ishlab chiqiladi. Obraz orqali peyzaj va interyer predmeti, hodisa va qahramonlar harakati ifodalanadi. Ushbu maqolada badiiy obrazning borliqni ifodalash omili sifatidagi talqini atoqli adib Isajon Sulton hikoyalari misolida ochib berilgan.

Аннотация

Известно, что в литературном произведении художественные образы воспринимаются как предметы, обладающие реальным эмпирическим ощущением. Писатели выражают в своих произведениях образ мира и людей. Следует сказать, что художественный образ не только показывает правильное изображение природы, животного мира, человека, межличностных отношений в целом. Если художественное произведение является основной единицей литературы, то художественный образ является основной единицей литературного творчества. Образ объекта разрабатывается с помощью художественных образов. Через изображение выражены пейзажи и предметы интерьера, события и действия героев. В данной статье трактовка художественного образа как фактора выражения существования раскрывается на примере рассказов известного писателя Исаджана Султана.

Abstract

It is known that in the literary work, artistic images are perceived as objects with real empirical feelings. Writers express the image of the world and people in their works. It should be said that an artistic image not only shows the proper image of nature, animal world, man, and interpersonal relations in general. If the artistic work is the main unit of literature, then the artistic image is the main unit of literary creation. An image object is developed with the help of artistic images. Landscape and interior subjects, events and actions of heroes are expressed through the image. In this article, the interpretation of the artistic image as a factor of expression of existence is revealed on the example of the stories of the famous writer Isajon Sultan.

Kalit so'zlar: I. Sulton, badiiy obraz, borliqni anglash, "Bo'ri", "Kichkina pushtirang maxluqcha", "Avliyo", shamol, hayvon obrazi.

Ключевые слова: И. Султан, художественный образ, понимание бытия, «Волк», «Розовое существо», «Святой», ветер, образ животного.

Key words: I. Sultan, artistic image, understanding of existence, "Wolf", "Little pink creature", "Saint", wind, animal image.

KIRISH

Badiiy asarda muallifning o'y-fikri namoyon bo'ladi va unda asosiy umumlashgan g'oya yuzaga chiqadi. Badiiy obraz faqatgina odam tasvirini o'zida aks ettirmaydi, balki u odam hayotining manzarasi bo'lib, uning hayotini qurshab turgan hamma narsani qamrab oladi. "Badiiy obraz faqatgina aks ettirmaydi, balki borliqni umumlashtiradi, birgalikda ochib beradi, vaqtinchalik borliqni, boqiylikni umumlashtiradi. Badiiy obraz spesifikasi u borliqni anglashi va yangi o'ylab topilgan dunyo barpo qilishi bilan aniqlanadi. O'zining fantaziyasi, uydirmasi yordamida muallif real

material paydo qiladi, aniq so'zlar, bo'yoqlar, ovozlardan foydalanib, rassom yagona asarni barpo etadi [7]. Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz hisoblanadi. Badiiy ijod so'z tanlashdan boshlanar ekan, har bir ijodkor uchun so'zni his qilish, oddiy so'zni ham san'at darajasida qo'llab, uni mukammal badiiy vositaga aylantirish nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki bunday so'z asarning qaysi qismida qo'llanilishiga qarab aniq badiiy maqsadni ifodalashga yoki ma'lum vazifa bajarishga xizmat qiladi. Ijodkorlar voqelikning muayyan ko'rinishi, kishilarning holat, harakat kechinmalarini aniq va ta'sirchan ifodalaydigan so'zlardan foydalanadilar hamda yorqin badiiy obrazlar yaratadilar. Taniqli o'zbek adibi Isajon Sulton asarlarida yozuvchi tomonidan tanlangan obrazlar alohida badiiy maqsad va vazifalarni bajarishga qaratilgani, o'ziga xos individualizmga ega ekanligi bilan diqqatingizni tortadi. Adib hikoyalarida badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan qahramonlar tasviri kitobxonning ongiga o'mashib, qalbida yashaydi, unga yaqin bo'lgan orzu- armonlar, xohish-istaklarni namoyon etganday bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yozuvchi badiiy obrazni yaratar ekan, ijtimoiy va shaxsiy tajribaga, poetik an'anaga, til vositalarining ekspressiv-ifodaviy imkoniyatlariga va eng avvalo, so'zning potensial imkoniyatlariga tayanadi. T.D.Gachevning fikricha, olamning milliy obrazi quyidagilarni o'z ichiga oladi: milliy makon, turmush, til; milliy xarakter, milliy qalb; tafakkurning milliy xususiyati, olamni idrok qilish usuli, turmushga nazar, qadriyatlar ketma-ketligi. Har bir davr esa o'z obrazlarini keltirib chiqaradi. Badiiy obraz eng muhim estetik kategoriya sifatida borliqni idrok qilishning alohida uslubi, uni alohida his etishning natijasidir va shuning uchun ham ma'lum madaniyatning elementi sifatida qaralishi mumkin. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi.

Ta'kidlash kerakki, badiiy obraz - borliqning badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, balki u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosda qayta ishlangan aksidir. Badiiylik hayotni jonli va ta'sirli qilib tasvirlashning umumiy belgisi, o'xshash qilib qayta yaratilgan olamning tirikligini mo'jizakorligini, ta'sirchanligini ta'minlovchi hodisadir. Ya'ni badiiylik badiiy ijodning hamma unsurlarini qamrab oladi. Shuningdek, obrazlilik badiiylik ichida yashab, uning mohiyatini o'zida tashiydi. Shu sabab obraz tushunchasi adabiyot ilmining bosh masalalaridan sanaladi, chunki unda obrazlilikning mohiyati borligicha namoyon bo'ladi. Demak, yozuvchi – san'atkorning butun salohiyati u yaratgan obrazlarda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan olib qaraganda, Isajon Sulton hikoyalarida badiiy obraz borliqni anglashning tipik omili sifatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Adibning tahlil uchun tanlangan "Bo'ri", "Kichkina pushtirang maxluqcha", "Avliyo" kabi hikoyalarida hayvon, shamol va mifologemik timsollarning badiiy obraz darajasiga ko'tarilganini, ularda yozuvchining badiiy maqsadi to'laqonli aks etganini ko'rish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Isajon Sulton asarlarida badiiy obrazlarning o'ziga xosligi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, adibning alohida mahorati va poetik imkoniyatlari katta ekanligiga guvoh bo'lamiz. Har qanday asarga olib kirilgan katta-kichik qahramonlar obraz darajasiga ko'tarila olmasligiga qaramay, Isajon Sulton hikoyalari bu borada ancha salmoqli obrazlarni o'zida jamlagan. Masalan, uning "Ozod" romanida shamol, "Onaizorim" qissasida ariq suvi, "Qismat" hikoyasida baliq obraz darajasiga ko'tarilganini qayd etish mumkin. Shamol ulug' donishmand, ariq suvi maslahatgo'y, do'st, baliq o'z xato va gunohlari uchun ayanchli taqdirga mahkum etilgan osiy sifatida gavdalanadi.

Asarda har bir obraz badiiy asar g'oyasi yo'lida xizmat qiladi, asar mohiyatini ochib berish uchun qo'llaniladi. Bu haqda adibning o'zi quyidagicha izoh beradi: "Men ulg'aygan diyorlarda shamol juda qattiq esadi. Daraxtlarni sindirib, tomlarni uchirib ketadi. Aqlim to'lishgani sayin, olamda undan ham kuchli shamollar borligidan xabar topdim. Masalan, fikrlarni uchirib ketadigan tafakkur shamoli, hislarni uyg'otadigan muhabbat shamoli... Shamolning vazifasi bitta: havolarni yangilaydi, barakat va rahmat bulutlarini surib keladi, shuning barobarida dov-daraxtni ham changlab, eski yaproqlarni to'playdi. Biroq, kezi kelganida vaqt shamoliga ham aylanadi, sochlarimizdan tortqilab, yulqilab o'tmish onlaridan va tushunarsiz kelajakdan darak ham beradi" [3].

ADABIYOTSHUNOSLIK

Yozuvchining o'nlab hikoyalarida shamol obrazi birlamchi motivda ifoda etilgani e'tiborga molik. Uning "Shamolli kecha", "Sog'inch", "Avliyo", "Oydinbuloq" hikoyalaridagi shamol obrazi, ayniqsa, badiiy mukammaldir. Mazkur hikoyalarda shamol esishi, o'yini, qahri, muloyimligi o'ziga xos timsol sifatida gavdalanirilsa, "Boqiy darbadar" romanida bo'ron daxshatli kuch va ilohiy aralashuv sifatida ko'rsatiladi. "Ozod" romanida esa sarsari shamol ham hamroh, ham ustoz, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi qiyofasini namoyon etadi. "Shamolli kecha"da shamol real voqelik hamda taqdir shamoli tarzida namoyon bo'ladi. Hayot shamolining turli-tuman xavflari aro onasi Nozik, xolalari Latofat, ammalari Go'zal deb ataydigan, ko'zlari kulib turadigan yoqimtoygina qizaloq, ya'ni go'zallik, latofat, nazokat timsoli va eng asosiysi, akaning or-nomusi qo'rquvlar bois o'sha xavf-xatarlar ichida qolib ketadi" [1. 46].

"Sofiya" hikoyasida Sofiya nomi bilan aytiladigan to'fonning qisqa muddat ichida hamma yoqni vayron qilishi, benihoya kuchi bilan og'ochlarni sindirishi kabi tasvirlar uchraydiki, endi bunda shamol buzg'unchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Sofiya muhitni o'zgartirdi. Izidan yog'gan yomg'ir g'uborlarni yuvib tashladi. Shunda biz to'fonning ofat emas, balki (to'fonday kirib kelgan) muhabbat ekanini his qilamiz. "Sofiya" so'zi yunonchada yuksak donolik, iymon, umid, muhabbat ma'nolarini anglatadi, bu hikoyaning ochqich-kaliti shu so'zda, deyish mumkin. "Nafaqat muhabbat, balki voqea-hodisalar va tuyg'ulardan tashqari, boshqa tur ma'naviy bo'ronlar ham borki, ular ham inson hayotini mana shunday tubdan o'zgartirib yubora oladi" [1. 47]. Aytish mumkinki, Isajon Sulton asarlarida shamol obrazi tuganmas poetik imkoniyatdir va u kitobxonga borliq haqiqatlarini anglashga yordam beradi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Isajon Sulton hikoyalarida mifologemalar avliyo, xazinabon, dev, pari, jin kabi obrazlar, qo'riqchi, baliq, oq ilon singari ramz-timsollar, Eram bog'i, Tilsim tog'i, daryo, choyxona kabi makon tasvirida namoyon bo'lishi va yozuvchining ulardan qahramon xarakteri, uning psixologik holatlarini tasvirlashda, xalqning milliy ruhini aks ettirishda foydalanish mahorati yoritib berilmoqda. Isajon Sultonning "Qo'riqchi", "Manzil", "Xazinabon", "Shamolli kecha", "Avliyo", "Otamga nimadir bo'ldi", "Turmush", "Qismat" kabi hikoyalarida safar, sinov, xotirlash, ziyorat, tush, o'gay ona, o'zga olam motivlari nafaqat syujet tizimi rivojini ta'minlovchi vosita, balki asar g'oyasini ochilishida xizmat qiluvchi o'ziga xos poetik vazifani bajarganini ko'rish mumkin. Umuman, yozuvchining hikoyalarida ertak, rivoyat, afsona, doston janrlariga xos motiv va syujetlar stilizatsiyasi, polbos, katoblepas singari mifologik obrazlar transformatsiyasi, shuningdek, diniy-e'tiqodiy qarashlarga asoslangan mifologizmlar yaqqol namoyon bo'ladi va ular adib dunyoqarashini ifodalovchi, estetik idealini gavdalaniruvchi vosita sifatida ko'rinadi. Shu jihatdan olib qaraganda, Isajon Sultonning "Kichkina pushtirang maxluqcha" hikoyasidagi mas'um maxluqcha badiiy obrazi ham diqqatingizni tortadi. Hikoyada borliqdagi zulm, ayniqsa, o'z ko'z o'ngida sodir bo'layotgan vahshiyliklarga qattiq qo'rquv va o'z o'rnida ichki titroq bilan qarab turgan pushtirang maxluqcha bu zulmlarga qarshi biror ish qila olmaganidan, mazlum qiyofasidagi boshqa bir jonivorga yordam bera olmaganidan juda qattiq iztirobga tushadi va o'z qafasida turgan ko'yi qo'llarini g'ajiy boshlaydi...

"Pliniyga ko'ra, katoblepas juda beso'naqay maxluq. Boshi og'ir va katta bo'ladi. Ko'pincha o'z boshini o'zi ko'tarolmay yuradi. Uning hamma vahshati ko'zlarida, vazmin qovoqlarini arang ko'tarib qarasa, u qaragan jonzot o'sha zahoti til tortmay o'ladi, deyishadi.

Katta oynavand eshikdan ichkariga kirib, keng-mo'l tomoshaxona adog'idagi yanayam keng bir sahnda katoblepasni ko'rgach, aslida unday emasligini tushundim.

Bu – kichkina gavdali, ammo bo'yni uzun yoqimtoygina jonzot edi. Ko'zchalari g'oyat musaffo, nimasi bilandir yosh bolaning ko'zlarini eslatadi. Barmoqchalari ham jajjigina, och pushti tusda ekan. Uzun kipriklarini pirpiratib odamlarga qarar, ko'rgan odam beixtiyor uni yoqtirib qoladigan darajada mas'um... tavba, bu pushti maxluqchada Pliniy yoki Flober aytib ketgan vahshatni ko'rmadim" [5].

Hikoya juda ta'sirchan va ichki tug'yonlarni uyg'otuvchi poetik tasvirlarga boy. Unda aynan pushtirang maxluqcha obrazi yozuvchi ijodiga xos poetik imkoniyatlarning yangi darajasini ko'rsatib beradi. Hikoyani o'qigan oddiy kitobxondan tortib, olimlarga alohida fikr va mulohazalar uyg'ongani ham shundan. Xususan, hikoyani o'qigach, Mashhura Sheraliyeva shunday yozadi: "...O'z qo'llarini yeb bitirayotgan kichkina pushtirang maxluqcha - zulmni tag-tomiri bilan yo'qotish istagida yongan, ammo voqelikka ta'sir o'tkazishda ilojisizligini anglab turgan san'atkor...". Hikoyani

o'qirkanman, pushtirang maxluqchani qo'shig'ini eshitgandek bo'lmadim, balki haqiqatan ham eshitdim, kuyidagi ohang ham yuragimdan o'tganini his qildim. Kuylash, yozish, chizish, umuman olganda, ijod - ilojsizlik bag'rida ham imkon izlash degani, bu - ijodkorning qismati" [6]. Shuningdek, Rahimjon Rahmat mulohazalari ham juda o'rinni: "...Qafasning ichida o'sha maxluqcha turibdi, u yoqdan bitta quyanni chiqarishdi, bu yoqdan bitta ilonni chiqarishdi. Borib ilon quyanni bo'g'ib yutmoqchi bo'lyapti. Buni ko'rib turgan bechora pushtirang moviy maxluqcha esa, o'jiz, yordam berolmaydi. U qurg'ur o'jiz va notovonlikdan qattiq iztirob chekib, alam zo'ridan o'z barmog'ini g'ajiy boshlaydi. Bunaqa asarlar Sovet davrida umuman e'lon qilinmagan. Ya'ni, "g'aladonga solib qo'yiladigan asarlar" degan gap yo'q hozir. Har qanday asar agar u badiiy jihatdan go'zal bo'lsa, xohlagan joyga olib borib chop qildirish mumkin" [8].

Aytish kerakki, yozuvchi hikoyalarining badiiy qimmatini oshirgan, uni vaqt va makon tanlamas adabiy boylikka aylanishiga asos bo'lgan eng muhim omillardan biri aynan adib tanlagan va to'laqonli yoritib bera olgan badiiy obrazlardir. Pushtirang maxluqcha yozuvchi qalami va tafakkurining mahsuli bo'lgan ana shunday obrazlardan biridir.

Isajon Sulton hikoyalarida hayvon obrazi ham alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, uning ijodida bo'ri obrazi yetakchilik qiladi. Buni adibning "Bo'ri", "Tuman" hikoyalarida yaqqol ko'rish mumkin.

Ma'lumki, dunyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar va ularning bir qismi bo'lgan o'zbek xalqi orasida ham bo'ri totemi va bo'ri kultiga ishonch keng ommalashgan. Bo'riining muqaddaslashtirilishi tarixi, bu jonivorga xalq ishonchlari, bo'riining marosim va irimlardagi ifodasi kabi masalalar ham olimlar tomonidan yoritib berilgan [2]. Adib esa aynan erkni, erkinlikni, jasoratni, kuchlilikni aynan bo'ri obrazida beradi. Chunki turkiy xalqlar tarixi, ularning ko'hna e'tiqodlaridan xabardor bo'lgan yozuvchi garchi bugungi kunda e'tiqodlar o'zgarib, totemlar bilan bog'liq tushunchalar eskirgan bo'lsa-da, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan ichki hisni teran his qila olgani uning ijodida to'la namoyon bo'ladi.

Yozuvchi o'z hikoyalarida hayvon tasvirlariga, ayniqsa, bo'ri obraziga alohida va turlicha yondashgan. Ijodkorning "Bo'ri" hikoyasida otaning bo'ri haqidagi xotiralari esga olinishi orqali inson va bo'ri ruhiyatidagi erk, ozodlikni istovchi tuyg'u birlashadi.

Mazkur hikoya shunchaki qishloqqa oralagan bo'rini tutish, uni o'ldirish, xalqni xavfdan ozod qilish yoki qahramonning bo'ri bilan uchrashuvidan iborat emas. "Ichimda yovvoyi bir hayajon bosh ko'taradi. Oy yog'dusi ostida yastanib yotgan o'sha kengliklarga borgim keladi. Ammo bolalar katta bo'lishyapti-ku.. Ularni o'qitishim, uylab-joylashim kerak... Ha, tashvishlarim mo'l. Ularni ado etish otalik burchim, bajarmasam bo'larmidi? Ammo bir faslga bo'lsa-da, tin olgim keladi-da. Miyamni charsillatar darajada og'ir tashvishlar charchatganida, bir nafas, atigi bir nafasgina o'sha yoqlarga ketsam... Kim bilsin, butalar ostida nigohini menga xotirjam tikib turgan o'sha bo'rini yana ko'rsam ajabmas..." [9]. Otaning ichidagi istagi bu – erk istagi, erkinlik istagi. Bu erkinlik faqat tashqi omillar bilan bog'liq emas. Qahramon ichki olamida insoniy orzu-havaslar, ularga tobelikdan qutulish istagi jo'sh uradi. Biroq uning ruhi har qancha ozodlik istamasin, moddiy dunyo va oila tashvishlaridan boshini ko'tara olmaydi. Garchi bo'rini uchratganiga ancha yillar o'tib ketgan bo'lsa ham, bo'ridagi mag'rurlik, kelbatli, erkinlikni istovchi qalb unga yaqin bo'lgani uchun uni unutmaydi. Hatto bo'riining qishloqdoshlari tomonidan topib o'ldirilishi otaning ruhiyatiga qattiq ta'sir qiladi. Chunki u bo'riga duch kelganida o'ldirmaganligining sababi ham "bolalari bor" degan to'siq edi. U o'zi va bo'ridagi umumiylikni, har ikkisiga xos "oilaboshi" degan nomga bog'langan edi. Umuman olganda, bo'ri obrazi yozuvchi asarlarining asosiy obrazlaridan biri sifatida gavdalantiriladi va unda insoniyat, butun borliq tug'yonlari, insonning orzu- armonlarini aks ettirishga erishiladi. Bu esa I.Sulton badiiyatining muhim poetik qirrasidir.

Nafaqat o'zbek adabiyoti, balki dunyo adabiyoti maydonida o'ziga xos o'rin va so'zga ega bo'lib borayotgan, yozganlari xalqaro badiiy tamoyillar uzra yuksalib borayotgan bo'lsa-da, Isajon Sulton hali o'z asarlaridan qanoatlanmaydi: "Alvon bulutlar tomonga uzanib ketgan, ikki cheti, urug'larini sochib yuborgan va kuchli islar taratayotgan, maysalarga to'la tafakkur so'qmog'idan shu tariqa quyosh botayotgan tarablarga ravona bo'lmoqdamiz. Va bir qur alanglaganimizda ko'ramizki, o'zimiz bilan olib ketayotganimiz - faqat ma'nolar ekan, xolos" [4]. Ta'kidlash kerakki, bugungi adabiy jarayonda Murod Muhammad Do'st, Normurod Norqobilov, Ahmad A'zam, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Luqmon Bo'rixon singari mahoratli adiblar safida o'z so'zi va o'z uslubiga ega

ADABIYOTSHUNOSLIK

ijodkor sifatida Isajon Sulton asarlari milliy nasrimiz, xususan, hikoyachiligimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Mustaqillik davri o'zbek nasri qahramonlar tasvirida hozirda shaklga emas, aksincha ruhiyat tasviriga alohida e'tibor berilmoqda. Badiiy asarda odamga ijobiy yoki salbiy munosabat yozuvchi tomonidan qo'yilgan qolip bilan emas, balki kitobxonning o'ziga havola qilinmoqda. Har bir o'quvchi o'z qahramonini yangicha, mustaqil kashf qila oladi va bu hamma uchun qat'iy fikr yoki xulosa emas. Bu esa bugungi davr nasri taraqqiyotidan darakdir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, xalq yozuvchisi Isajon Sulton asarlarida biz o'ziga xos uslubni, insonning ichki dunyosiga kirib boradigan, o'yga toldiradigan va mushohada qilishga undaydigan, ayniqsa, badiiy adabiyotda borliqni anglash vositasi sifatida namoyon bo'layotgan badiiy obrazlarni topamizki, ular o'zida milliy adabiyotimizning poetik salmog'i va badiiy imkoniyatlarini aks ettirgani bilan qimmatli sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Rasulov Isajon Sulton nasri badiiyati (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar). –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. –B.46.
2. Potapov L.P.Volk starinnix narodnix poveriyax i primetax uzbekov.-S. 135-142.
3. International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands. April 30 th 2022(<https://econferencezone.org>)
- 4.<https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/isajon-sultonov/isazhon-sulton-meni-am-turtib-ujerta/>
- 5.<https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/isajon-sultonov/isazhon-sulton-kichkina-pushtirang-mahl/>
- 6.https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan/2012/11/121101_cy_isajon_sulton
- 7.<https://ru.wikipedia.org/wiki/>
- 8.https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan/2013/10/131028_talking_point_rakhimjon_rakhmat
- 9.<https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/isajon-sultonov/irsazhon-sulton-b-ri-ikoya/>